



New York State
Seal of Biliteracy
(NYSSB)



Oilalar uchun NYSSB

NYSSB nima?

Nyu York shtati ikkitillik tamg'asi (New York State Seal of Biliteracy—NYSSB) bu ingliz tili va yana dunyo tillaridan birida yuqori darajadagi ko'nikmalarini namoyish etgan yuqori sinflar bitiruvchilariga beriladigan mukofotdir. NYSSB tillarni o'rganishga targ'ib qiladi, xilma-xillik va dunyo xalqlarining madaniyatiga qiymat beradi hamda universitetlar va bo'lajak ish beruvchilarga bizning o'quvchilarimiz haqida ma'lumot beradi.

NYSSB o'quvchilarga qanday manfaat keltiradi?

NYSSB bugungi dunyoda bittadan ortiq tilda so'zlashish imkoniyatiga ega bo'lishning muhimligini tan oladi. U o'quvchilarning mashaqqatini ajratib ko'rsatadi, ularni o'z uylarining tillarida so'zlashishga hamda maktabda til o'rganishni davom ettirishga targ'ib qiladi. Ikkita tilni bilish ushbu o'quvchilar yuqori sinfni bitirganda ularning diplom va ilovasida ko'rsatiladi hamda ushbu o'quvchilarning ko'nikmalari bo'lajak ish beruvchilar va universitetlarga yetkaziladi. Barcha NYSSB bitiruvchilarning diplomlariga rasmiy tamg'a bosiladi, bitiruv oqshomida medalyon taqiladi va, shuningdek, ularga Nyu York shtati ta'lim boshqarmasining sertifikatini ham berilishi mumkin.

Kimlar NYSSB ga ega bo'lishlari mumkin?

NYSSB taklif etadigan maktab okrugida o'qiydigan har qanday ingliz tili va dunyoning boshqa biror tilini o'rganayotgan va/yoki biladigan o'quvchi ushbu mukofotga erishish uchun harakat qilishi mumkin. Bunga uyida ingliz tilidan boshqa tilda so'zlashuvchi o'quvchilar va chet tilini yuqori sinflarda o'rganayotgan o'quvchilar kiradi.

<http://www.nysed.gov/world-languages/new-york-state-seal-biliteracy-nyssb>

NYSSB olish uchun o'quvchilar nima qilishlari lozim?

NYSSB olishning turli yo'llari bor. O'quvchilar talab etilgan ko'nikmalar darajasini ko'rsatishlari lozim, ya'ni ingliz tilida uch (3) ball to'planishi va chet tillarining bir yoki undan ko'pida uch (3) ball to'planishi lozim. O'quvchilar ingliz tili yoki chet tili kurslarida kamida 85% olib, milliy sinovlarda belgilangan baho olib hamda ingliz va/yoki chet tilida loyiha ustida ishlab uni taqdim etish orqali NYSSB uchun ball to'plashlari mumkin.

Men bolamni NYSSB olishi uchun qanday qo'llab-quvvatlashim mumkin?

Agar oilangiz uyda ingliz tilidan boshqa tilda so'zlashsa, bolangizni o'sha tilda gapirish, o'qish va yozishni rivojlantirishni davom ettirishga targ'ib qiling. Yuqori sinflarda imkon qadar ertaroq NYSSB olish va ushbu mukofotni ichiga oluvchi bitirish rejasini tuzish bo'yicha bolangizning maktab maslahatchisi bilan gaplashing. Bolangiz bilan bittadan ortiq tilda gapirish ko'nikmalarini rivojlantirishning muhimligi hamda bu ularning yuqori sinflardan keyingi rejalarini amalga oshirishda qanday yordam berishi haqida muhokama qiling.

NYSSB haqida qayerdan ma'lumot olishim mumkin ?

Maktabingizdagi NYSSB dasturi haqida batafsil ma'lumot olish uchun bolangizning maktab maslahatchisi, chet tillari o'qituvchisi yoki ingliz tili o'qituvchisi bilan gaplashing. Oilalar [NYSSB veb saytida](#) yoki bizning bo'linmaga e-pochta (nyssb@nysed.gov) yoki telefon (518.473.7505) orqali murojaat qilib ma'lumot olishlari mumkin.



Office of Bilingual Education and World Languages
New York State Education Department
89 Washington Avenue, 505EB
Albany, NY 12234



New York State
EDUCATION DEPARTMENT
Knowledge > Skill > Opportunity